


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

MALAKA TALABLARI

**O'rta maxsus ta'lim sohalari
bo'yicha malaka talablari**



ANIQ FANLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS TA’LIM SOHALARI BO‘YICHA
MALAKA TALABLARI

3910000 Aniq fanlar – ta’lim sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasi
va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan
UMUMIY TALABLAR

Toshkent-2024

Ushbu malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-iyuldagi 252-son buyrug‘i bilan tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “O‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standarti”ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Malaka talablari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil 20-avgustdagi 9-son yig‘ilish bayoni qarori bilan ma’qullangan hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA:

1. Qo'llanish sohasi.....	4
2. Malaka talablarining maqsad va vazifalari.....	4
3. Akademik litsey bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar.....	4
4. Ta'lim sohasi bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi	5
5. O'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi	20
6. Tayanch so'zlar	22

1. Qo'llanish sohasi

“Aniq fanlar” ta'lim sohasi bo'yicha malaka talablari akademik litseylarda mazkur ta'lim sohasidagi barcha ta'lim yo'nalishlari mazmunining zarur va yetarliligini, o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv yuklamasining hajmini, bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini belgilab beradi.

Malaka talablari o'zining idoraviy bo'ysinuvidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha akademik litseylarga joriy etiladi.

Malaka talablari akademik litseylarning barcha turdagi o'quv me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos hisoblanadi.

Malaka talablari o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, akademik litsey manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarining ustuvorligidan kelib chiqadi.

2. Malaka talabining maqsad va vazifalari

2.1. Akademik litseylar ta'lim sohalari bo'yicha malaka talablaridan ko'zlangan maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan kelib chiqib, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim va o'qitish sifatiga, ta'lim mazmuniga, ta'lim oluvchilar va ularning tayyorgarlik darajasiga, ta'lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o'quv yuklamasi va faoliyati hajmiga hamda baholash mexanizmlariga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

2.2. Malaka talablari quyidagi vazifalarni nazarda tutadi:

o'rta maxsus ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

muhandislik sohasiga oid bo'lgan kasblarga qiziqishini oshirish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

akademik litsey o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim sifati va ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga hamda kadrlar tayyorlashga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

o'rta maxsus ta'limga va uning pirovard natijalariga, o'quvchilarning bilimi va malaka darajasini baholash tartibiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

xalqaro **SAT** va **milliy sertifikat** imtihonlariga oid mavzular kiritish;

tajriba tariqasida dunyo bo'yicha tan olingan **STEM**, **“Xalqaro bakalavriat”** va **“A level”** ta'lim dasturlari asosida o'qitishni joriy qilish.

3. Akademik litsey bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablar

3.1. Akademik litsey bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar quyidagi ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan tavsifidan iborat:

o'qitiladigan fanlar doirasida nazariy va amaliy kompetensiyalarga ega bo'lish;

bilimlarni muntazam oshirish va yangilab borishga intilish, o'quv faoliyatiga ijodiy hamda mustaqil yondashish sifatlariga ega bo'lish;

mantiqiy fikrlashning uslublari va usullarini bilish, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;

mustaqil va kreativ fikrlash, fikrlarni yozma va og‘zaki tarzda ravon bayon etish malakalari shakllangan bo‘lishi;

davlat tilini hamda kamida bitta xorijiy tilni mukammal bilish;

davlat va xorijiy tildagi hujjatlar bilan ishlay olish;

ma‘naviy-axloqiy madaniyatga ega bo‘lish;

liderlik xislatlarining shakllangan bo‘lishi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko‘nikmalarini mustahkam egallash;

jismonan sog‘lom, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko‘rsatishga layoqatli bo‘lish;

sog‘lom turmush tarzi, mehnat madaniyati, intellektual madaniyat va madaniy munosabatlarda o‘zini to‘liq namoyon qila olish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish borasidagi me‘yor va tartiblar mohiyatini bilishi;

umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lishi, o‘z Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;

mamlakat, jamiyat, insoniyatning axloqiy va huquqiy qonunlarini tan olgan, tanlash erkinligi va boshqa odamlarning huquqlarini hurmat qilgan holda, o‘z fikrini, dinini, turmush tarzini tanlashda erkin bo‘lish;

turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, yangiliklarga doimiy intilish, masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;

faoliyat doirasiga tegishli masalalarni hal qilish yo‘llarini izlash, tahlil va talqin qila olish;

Vatan tarixini bilish, davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega bo‘lish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish;

huquqiy madaniyatga ega, fuqarolik burchi va mas‘uliyat hislari shakllangan bo‘lishi;

ekologik mas‘uliyatni his qilish, ekologik madaniyatga hamda tabiatni muhofaza qilish sohasida bilimlarga ega bo‘lish;

zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan, jahon madaniyatiga kirishga imkon beruvchi faoliyat sohasini erkin tanlash imkonini beruvchi ta‘lim darajasiga ega bo‘lish.

4. Ta‘lim sohasi bo‘yicha ta‘lim mazmunining majburiy minimumi

4.1. Akademik litseylarda ta‘lim mazmuni bevosita umumta‘lim maktablari ta‘lim mazmuni bilan uzviy bog‘liq va umumta‘lim maktablarining 9-sinfi negizida davom ettiriladi.

4.2. **“Aniq fanlar”** ta‘lim sohasida umumta‘lim, chuqurlashtirilgan, unifikatsiya qilingan va kasbiy fanlar asoslarini puxta o‘rganish asosida amalga oshiriladi.

4.3. Akademik litsey bitiruvchilariga ta‘lim mazmunining majburiy minimumi umumta‘lim va chuqurlashtirilgan fanlarning mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid umumiy kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar belgilab beriladi.

4.4. Unifikatsiya qilinadigan fanlar ta‘lim yo‘nalishidan kelib chiqqan holda akademik litsey va tegishli oliy ta‘lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

4.5. Kasbiy fanlarni tanlash ta‘lim yo‘nalishidan, jamiyat va mehnat bozori talablaridan, ilmiy-texnika sohasidagi o‘zgarishlardan hamda o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda akademik litseyning pedagogik kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

4.6. Akademik litseylarda fanlar bo‘yicha ta‘lim mazmunining zarur va yetarli hajmiga erishish barcha o‘quvchilar uchun majburiydir.

4.7. **“Aniq fanlar”** ta‘lim sohasida chuqurlashtirilgan fanlar bo‘yicha ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga asosan quyidagi taqsimotga ega:

Ta‘lim yo‘nalishi kodi	Ta‘lim yo‘nalishi nomi	Chuqurlashtirilgan fanlar
3910001	Aniq fanlar-1	Matematika, fizika
3910002	Aniq fanlar-2	Matematika, xorijiy til
3910003	Aniq fanlar-3	Matematika, rasm va chizmachilik
3910004	Aniq fanlar-4	Matematika, ona tili va adabiyot
3910005	Aniq fanlar-5	Matematika, geografiya

4.8. Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda umumta'lim fanlarini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Malaka darajasi	Darajalarning nomlanishi
B1	Umumta'lim fanlarini o'rganishning umumiy darajasi
B1+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Tayanch kompetensiyalar

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida va kamida bitta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoa bilan samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, axborotlarning xavfsizligini ta'minlash, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, shuningdek, o'z hatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli va milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish hamda madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarda umumta'lim fanlari orqali shakllantiriladi. Shuningdek, har bir chuqurlashtirilgan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

MATEMATIKA

Matematika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:



O'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, kreativ, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, muhandislik va bunyodkorlik umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Matematika o'quv fanidan bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari

1. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya

B1+

to'plam va mulohazalar ustida amallar bajara oladi;
sonlar nazariyasiga oid masalalarni yecha oladi;
nostandart tenglama va tengsizliklarni yecha oladi;
turli elementar funksiyalarning xossalarini aniqlaydi va ularning grafiklarini tasvirlaydi;
sodda sonli ketma-ketliklar va elementar funksiyalarning limitlarini hisoblay oladi;
sodda differentsial tenglamalarni yecha oladi;
hosila va integralni turli masalalarga tatbiq qila oladi;
mantiqiy masalalarni mulohaza yuritib yecha oladi;
kombinatorikaga oid nostandart masalalarni yecha oladi;
ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlariga oid masalalarni yecha oladi;
amaliy vaziyatlarda ro'y beradigan ayrim hodisalar va jarayonlarning modellarini qura oladi va tahlil qila oladi;
matnli masalalarni har xil usullarda yecha oladi;
sodda amaliy vaziyatlarni modellashtira oladi.
vektorlar va ular ustida amallar bajara oladi;
fazoviy figuralarni tekislikda tasvirlay oladi;
o'rganilgan yassi va fazoviy figuralar kombinatsiyalariga oid geometrik masalalarni yecha oladi;

2. Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi)

B1+

nostandart vaziyatlarni tahlil qila oladi;
matmatikaning har bir shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega ekanligini tushuntira oladi;
matematik modellashtirish tevarak-atrofimizni anglashda muhim qurol ekanligini tushuntira oladi;
muhandislik sohalarida masalalarini matematik nuqtayi nazardan tushuntira oladi;
maqsadlarni belgilay oladi;
o'zining faoliyatini rejalashtira oladi;
o'zining shaxsiy pozitsiyasiga asoslanib, noaniq holatlarda o'z o'rnini topa oladi;
real dunyodagi, ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining va boshqalarning pozitiv, emotsional munosabatini shakllantira oladi;
analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi;
muammoning yechimiga olib keladigan asosiy g'oyani topa oladi;
deduktiv mushohada yuritishning asosiy usullaridan foydalana oladi;
matematik masalalarni yechishda mantiqiy fikr yurita oladi;
xalqaro SAT va milliy sertifikat imtihonlari talablariga javob bera oladi.

Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishning asosiy maqsadi:

o'quvchilarda fizika va astronomiya fanlariga oid umumiy

o'quvchilarning olamning fizik manzarasiga oid dunyoqarashini kengaytirish bilan amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda fizik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

o'quvchilarda atrof olamni o'rganishga ishonch tuyg'ularni hosil qilish, tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, fizik hodisalarni o'rganishda asboblardan to'g'ri foydalana olish, fizik tushuncha va kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanishda fan va texnika, muhandislik hamda ijodkorlikka hurmat bilan qarash, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalash, o'qitish natijalarini baholash tartibi, ta'lim va tarbiya sifatini nazorat qilishni takomillashtirish, milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash, STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan.

1. Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi

Fizik va astronomik kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimi (SI)ni, matematik ifodalarini mantiqiy bogʻliq holda tushunadi va tushuntira oladi. Olingan nazariy va amaliy bilimlardan fan-texnika, muhandislik sohasida va kundalik turmushda foydalana oladi. Fizik qonun, qoida va qonuniyatlarning matematik ifodasini bir shakldan ikkinchi shaklga oʻtkaza oladi va tushuntirib bera oladi.

Fizika bo‘limlariga oid kengaytirilgan asosiy tushunchalar, atamalar, fizik kattaliklar va ularning birliklari, qonuniyatlarini ta’lim yo‘nalishlari (klassifikatsiyasi) bo‘yicha amaliyotda qo‘llay oladi.

Ichki tana tuzilmalarini tasvirlashda rentgen nurlaridan foydalanishni tushuna oladi.

Kompyuter tomografiyasi (KT) usulida skanerlashni (3D tasvirini ishlab chiqarishini) tushunadi.

Pozitron (β^+) emissiya tomografiyasining (PET skanerlash) ishlash prinsiplarini tushuna oladi.

Astronomik obyektlarning ko‘rinma harakatlarini kuzatadi, tahlil qiladi va olgan bilimlarini tushuntira oladi;

olam tuzilishining geliotsentrik tizimi bo'yicha Quyosh tizimining tuzilishini bayon qila oladi; osmon jismlari, ularning ko'rinma harakatini o'rganish orqali kashf etilgan qonuniyatlarni hamda ularning ahamiyatini tushunadi va tushuntirib bera oladi. Tegishli qonunlarga doir masalalarni yecha oladi.

Xabbl (Hubble) qonunidan foydalanib, katta portlash nazariyasini tushuna oladi.

2. Tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi

B1+

Mustaqil ravishda tajriba qurilmalarini yig'adi, tajriba o'tkaza oladi va olingan natijalarni tahlil qila oladi, solishtira oladi;

natijalarni jadval, grafik ko'rinishda tasvirlay oladi va tegishli xulosalar chiqara oladi; fizik kattaliklarni aniqlash usullarini biladi.

Fizik kattaliklarning bilvosita hisoblab topilgan, bevosita o'lchangan qiymatlarni solishtira oladi, o'lchash va hisoblash xatoliklarini aniqlay oladi;

fizik kattaliklarni o'lchovchi asboblarning ishlash prinsipini biladi;

fizik qonunlarni muhandislik sohasiga tatbiq eta oladi;

tadqiqotchilik xususiyatlarini namoyon qila oladi.

Osmon jismlarini kuzatish orqali ularning sirt obyektlari haqida bilimlarga ega bo'ladi;

Osmon jismlarining koinot apparatlari yordamida olingan suratlari orqali ularning sirt obyektlari haqida xulosalar bera oladi;

Internetda berilayotgan osmon jismlari to'g'risidagi video materiallarni tushuna oladi.

3. Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi

B1+

fizika fanining nazariy asoslarini kundalik turmush va kasbiy sohalariga tatbiq eta oladi;

fanga oid o'rtacha darajadagi masalalarni yecha oladi;

o'lchov asboblari, jihozlari va o'quv vositalaridan (elektron tarozi, ampermetr, voltmeter, aneroid-barometr, lyuksmetr, Geyger sanagichi, tribometr, kalorimetr, Uitsen ko'prigi, tovush generatori, Tomson g'altagi, spektroskop, difraksion panjara, lazer qurilmasi, mikroskop, yorug'lik manbalari, fotodiod, fotorele, fotorezistorlar, kompyuter, videoproyektor va shu kabilardan) foydalana oladi, asboblarning o'lchash chegarasi va xatoligini baholay oladi, fizik jihozlarning ishlash prinsipini tushuntirib bera oladi, fizika asboblari bilan ishlash jarayonida texnika xavfsizligi qoidalarga rioya qiladi;

yangi ishlab chiqarilgan aloqa vositalari, robototexnika namunalari, ishlab chiqarish-sanoat texnikalarining ishlash prinsiplarini tahlil qila oladi;

darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan foydalana oladi;

astronomik kuzatish asboblari (teleskop, durbin) tuzilishini, ishlash prinsipini biladi va ulardan foydalana oladi;

osmon jismlari joylashuviga ko'ra olam qutbini topa oladi;

olam qutbiga ko'ra ufqning tomonlarini aniqlay oladi;

joyning geografik kengligini bilgan holda osmon jismlarining balandligini aniqlay oladi.

RASM

Rasm fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Rasm fanini o'qitishning asosiy maqsadi



o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash ulardan kundalik hayotida foydalanishni o'rgatishdan iborat. Rasm fanining o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarga o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, atrof-muhitni chuqurroq tushunish va o'zlarini ifoda etish uchun yangi vositalarni o'zlashtirishga yordam berishdir.

Rasm fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarga ijodiy, badiiy va intellektual rivojlanishga yordam berishdir. Bu vazifa texnik mahoratni o'rgatish, estetik qadriyatlarni singdirish, ijodkorlikni rag'batlantirish va rasm san'atining ahamiyatini tushuntirish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarga rasm san'ati orqali dunyoni anglash, o'zini ifoda etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish. Muhandislik, tasviriy va amaliy san'at asarlarini badiiy hunarmandchilikni me'morchilik va dizayn san'atiga oid tarixiy

namunalar hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga va amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatish.

Naturani xarakterli jihatlarini ko'ra olishga tahlil qilishga va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma – ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish.

Rasm fanidan bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari

1. Naturaning harakatli jihatlarini kuzatish tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi B1+

1. Texnik malakalar:

chizish texnikasi: turli xil materiallarni (qalam, qalamchalar, bo'yoqlar, cho'tkalar) ishlatib, turli xil rasmlarni yaratish, chizish texnikasiga ega bo'lish;

ranglarni aralashtirish: ranglarni bir-biriga qanday aralashtirishni, kerakli ranglarni olishni bilish;

kompozitsiya: rasmni to'g'ri tuzish, ko'zga yoqimli kompozitsiya yaratish;

perspektiva: rasm chizishda perspektivani qanday qo'llashni bilish;

anatomya va shaklni bilish: inson va hayvonlarning anatomiyasini bilish va ularni to'g'ri chizish.

2. San'at malakalar:

yaratilish qobiliyati: o'z g'oyalaringizni ifoda etish va yangi narsalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lish;

kuzatuv qobiliyati: atrofingizdagi dunyoni diqqat bilan kuzatib, tafsilotlarni qayd qilish;

tasavvur qobiliyati: o'zingizning tasavvuringizdan chiqib, yangi tasvirlarni yaratish;

estetik tuyg'u: go'zallikni anglash va uni rasmlaringizda ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lish.

3. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

B1+

Kuzatish va tavsiflash:

asarni diqqat bilan kuzatib, uni batafsil tavsiflash. Bu asarni qanday materiallar bilan yaratilganligi, ranglar palitrasi, kompozitsiyasi, shakli va boshqa vizual xususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin;


asarda qanday elementlar borligini va ular qanday tarzda joylashganligini aniqlash;

o'zingizni asarning ichida tasavvur qilib, unda qanday hislarni boshdan kechirishingizni yozib olish. O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qiladi tasviriy san'atning janrlarini oqim va yo'nalishlarini farqlay oladi.

CHIZMACHILIK

Chizmachilik fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Chizmachilik fanini o'qitishning asosiy maqsadi:



o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish, atrof-muhitni yaxshiroq tushunish, muammolarni hal qilish va ijodiy potensialini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilarning hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatda ifodalash orqali tafakkurni o'stirish, murakkab texnik chizmalarni bajarishga, o'qitishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatishdan iborat.

Chizmachilik fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

chizmachilik fanini o'qitishda ushbu vazifalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va birgalikda o'quvchilarda vizual savodxonlik, ijodiy qobiliyat va umumiy rivojlanishni ta'minlaydi;

chizmalar chizish va chizmani o'qish qoidalariga amal qilish, grafik tafakkurni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish;

texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;

chizmachilikda qo'llaniladigan termin va tushunchalardan, sodda elektron dasturlardan amaliyotda qo'llashga o'rgatish;

texnika va texnologiyalarning takomillashib borishini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

chizmachilik ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Chizmachilik fanidan bitiruvchilarga qo'yilgan malaka talablari

1. Chizmachilikda qo'llaniladigan atama va tushunchalarni bilish va qo'llay olish kompetensiyasi

B1+

Shakl, hajm va perspektiva: Shakllarni, hajmni va perspektivani to'g'ri tasvirlay oladi, ularni chizmada to'g'ri aks ettirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Grafik tasvirlar, jihozlar, standart shriftlar, geometrik yasashlar, tutashmalar, egri chiziqlar, ko'rinishlar, geometrik proyeksiyalari, detal modellarini konstruksiyalay oladi; yaqqol tasvirlar, aksonometrik proyeksiyalar, eskiz va texnik rasmni chiza oladi. Kesim qirqim shartlilik va soddalashtirish loyihalash elementlari boltli va shpilkalar birikmalar oddiy yig'ish chizmalarini tuzadi va o'qiy oladi.

Sodda buyumlarni konstruksiyalay oladi, kinematik radio va elektrik sxemalarni ko'ra oladi, chizmalarni chiza oladi va ular haqidagi fikrlarni og'zaki va yozma bayon eta oladi.

2. Ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi

B1+

Chizmalarni taxt qilish chizma shriftlarini qoidalar asosida chizish geometrik yasashlarni bajarish proyeksion chizmalarni chizish aksonometrik proyeksiyalarni yasash hamda detalning eskizi va texnik chizmani bajarish jarayonlarini ish qurollaridan to'g'ri foydalana oladi.

GEOGRAFIYA

Geografiya fanini o'qitishning maqsad va vazifalari:



geografik qobiqning tarkibiy qismlari litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berish;

materiklarning geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari, aholisi, tabiiy geografik o'lkalari haqida bilimlar berish;

okeanlarning asosiy xususiyatlari, geografik o'rni, geologik tuzilishi, okean tubi yotqiziqlari, iqlim mintaqalari, suvining xususiyatlari, sho'rliqligi haqida bilimlar berish;

O'rta Osiyoning o'ziga xos xususiyatlari, aholisi, siyosiy xaritasi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari, tabiiy geografik rayonlashtirilishini o'rgatish;

geografik xaritalar, ularning turlari, shartli belgilari, atlaslar, globus haqida tushunchalar hosil qilish. Xaritalardagi xatoliklar, xarita andazalari, topografik xaritalar, ularning shartli belgilari va ulardan foydalanish haqida bilimlar berish;

mahalliy va mintaq vaqti, taqvimlar haqida bilimlar shakllantirish;

O'zbekistonning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, tabiiy geografik rayonlashtirilishi, tabiiy geografik okruglari haqida bilimlar berish;

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, sanoati, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalari, transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning ma'muriy birliklari haqida bilimlarni shakllantirish;

jahonning siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining tabiiy resurslari, jahon aholisi va uning tarkibi, dinamikasi, jahon sanoati va uning tarmoqlari geografiyasi, jahon qishloq xo'jaligi geografiyasi, jahon turizmi, jahonning regional tavsifi haqida bilimlar hosil qilish;

geotizmlar, ularning pog'onasimonligi, landshaft va uning morfologik qismlari, antropogen landshaftlar haqida bilimlar berish;

geografik ekspertiza, monitoring, geografik baholash, geografik prognoz to'g'risida bilimlar berish;

dunyoning geosiyosiy vaziyati, geosiyosiy jarayonlar, O'zbekistonning geosiyosiy o'rni va munosabatlari haqida bilimlar hosil qilish;

inson va tabiat munosabatlarining geografik asoslarini o'rgatish;

o'quvchilarda tabiatdan foydalanishda geografik bilimlarni qo'llay olish bo'yicha ko'nikma va tajriba hosil qilishdan iborat.

O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar

geografik qobiqning tarkibiy qismlarini, uning vertikal va gorizontaal tuzilishini tushunadi;

materiklarning asosiy xususiyatlari, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari, aholisi, tabiiy geografik o'lkalari haqida bilimlarga ega bo'ladi;

dunyo okeani va uning qismlari, xususiyatlarini biladi;

O'rta Osiyoning geografik o'rni, chegaralari, aholisi, siyosiy xaritasi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari, tabiiy geografik rayonlashtirilishini biladi;

O'zbekistonning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, tabiiy geografik rayonlashtirilishi, tabiiy geografik okruglari haqida bilimlar shakllanadi;

O'zbekiston iqtisodiyotining tuzilishi, uning sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida bilimlar shakllanadi;

O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini tushunadi, O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari haqida bilimlarga ega bo'ladi;

jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllari, davlat tuzilishi, mamlakatlarning joylashgan o'rni, iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra turlari haqida tushunadi;

jahon tabiiy resurslarining notekis tarqalganligi, ulardan foydalanish, zaxiralari haqida tushunchalar shakllanadi;

jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari, jahon xo'jaligiga fan-texnika inqilobining ta'sirini biladi;

yerning ichki tuzilishi va uning asosiy o'lchamlari: og'irligi, shakli, o'lchamlarini, yerning o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlarini biladi;

xaritalar, ularning turlari, shartli belgilarini biladi. Xaritalardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;

geotizimlar, ularning pog'onasimonligi, tabiiy va antropogen landshaftlar haqida bilimlar shakllanadi;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xulosalar chiqara oladi;

dunyodagi geosiyosiy jarayonlarni tushunadi, ularning O'zbekistonga ta'sirini baholay oladi.

ONA TILI

(barcha ta'lim olish tillari bo'yicha)

Ona tili fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini angelaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, orfoepiya, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni

rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchiga ona tilini o'qitish orqali shu tilda egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi bo'yicha har bir bosqichda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasini shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanidan akademik litsey bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari

Akademik litsey o'quvchilariga ona tilini o'qitish orqali egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi:

tinglab tushunish;

gapirish;

o'qish;

yozish.

Ushbu amallar bo'yicha akademik litseydagi ta'lim jarayonida malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda fikr almasha olish va bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Nutqiy malaka talablari

(Tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish)

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

B1+

Tinglab tushunish

tinglangan nutqni kommunikativ sifatlariga ko'ra baholay oladi;



ma'no ko'chish yo'llarini farqlaydi, matndagi o'rnini tahlil qiladi;

ona tilining boyish manbalarini, tarixiy, eskirgan, arxaik va yangi so'zlarni farqlaydi, nutqda ulardan to'g'ri foydalanadi;

so'zning ma'no va shakl munosabatlarini farqlaydi, nutqda to'g'ri qo'llaydi;

gap bo'laklarining odatiy tartibi, o'zgargan (inversiyaga uchragan) tartibini, ma'nodagi o'zgarishlarni farqlaydi va

nutqda ulardan to'g'ri foydalanadi;

uyushiq va ajratilgan bo'laklar, undalma va kiritmalar ohangiga rioya qiladi va ularning uslubiy ahamiyatini farqlagan holda nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llaydi;

ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari uslubiyatini, ulardagi o'ziga xos ifodalarni farqlaydi, nutqda to'g'ri qo'llaydi;

nutqiy vaziyatlarda qo'shma gap turlaridan va ko'chirma gaplardan o'rinli va to'g'ri foydalanadi, tinish belgilarini qo'llaydi;

tinglaganlari asosida xulosa qila oladi va xulosani dalillar bilan asoslay oladi;

tinglash jarayonida mazmunni tushunishdagi to'siqlarni anglaydi va bartaraf eta oladi.

Gapirish

nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta'sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg'uni o'rinli va to'g'ri qo'yadi;

o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so'zlaydi;

matnda nutq uslubining qanday qo'llanganini, har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nega aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushunadi;

ibora (idioma)lar, maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlaydi;

matn mazmuniga mos sarlavha(lar)ni topadi;

xulosa chiqarish, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'laydi;

matnning yozilishidan qanday maqsad ko'zlanganini, qaysi toifadagi o'quvchiga mo'ljallanganini, qanday kontekstda yozilganini biladi va bu bilimni matnni yaxshiroq tushunish uchun qo'llaydi;

har qanday mavzu yuzasidan og'zaki nutq tayyorlay oladi, mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarini ifodalab muloqotga kirisha oladi.

O'qish

turli janrdagi matnlarni ifodali hamda ta'sirchan o'qiydi, ulardagi uslubiy vositalarning ahamiyatini his qiladi;



o'zbek tiliga xos bo'lgan ibora(idioma)lar maqol va aforizmlarning matnga qo'shadigan hissasini aniqlaydi;

axborot matnlari (ilmiy va ommabop maqola, yo'riqnoma, grafik tasvir va jadvallar, tahliliy va tanqidiy matnlar, qiyoslash matnlari)ning muhim va nomuhim jihatlarini ajratadi, xatboshilarni aniqlaydi;

gapning ifoda maqsadi va his-hayajonning ishtirokiga ko'ra turlarini, sodda va qo'shma gaplarni ohangiga muvofiq o'qiydi;

turli matnlar (yo'riqnoma, reklama matnlari)ni o'qib tushunadi va munosabat bildiradi;

muallifning matnning muayyan qismlarini (voqeani boshlash yoki tugatish) yaratish bo'yicha tanlovi (komedik, tushkun, fojiali), matnning umumiy tuzilishi va mazmuniga, estetikasiga qanday hissa qo'shganini tahlil qiladi;

turli davrlarda bir xil mavzuda yozilgan matnlarni qiyoslaydi;


muallif tomonidan yaratilgan topilmalarni (yangi so'zlar, birikmalar) aniqlaydi va ularga munosabat bildiradi;

dramatik va she'riy parchalardagi so'zlarning ohang va mazmunga ta'sirini aniqlaydi;

xulosa chiqarishi, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'lagan holda yozma va audio shakllarini taqqoslab, ma'nodagi o'zgarishlar haqida fikr yuritadi.

Yozish

fikr ifodasida qo'shma gapdan foydalanadi, bir fikrni turli shaklda ifodalaydi;



ijodiy va badiiy matnlar yaratadi;

turli maqsad va turli auditoriyaga mo'ljallangan turli uslubdagi matnlarni yozadi, xususan, biror narsani tushuntirish yoki ma'lum narsa yoki hodisa haqida ma'lumot yetkazish uchun yozadi;

yo'zma nutqda grammatik, punktuatsion va imlo qoidalariga rioya qiladi;

o'zi foydalanishi uchun yetarli darajada aniq bo'lgan qaydlar qiladi;

ish qog'ozlari (e'lon, tabriknoma, taklifnoma, tushuntirish xati, tarjimai hol, ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma, tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma, yo'riqnoma, shartnoma, buyruq, buyruqdan ko'chirma)ni to'g'ri yozadi;

imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, o'z fikr va

hissiyotlarini ifodalaydi, shuningdek, biror ma'lumotni yetkazish uchun 25-30 ta gapdan iborat matn yozadi;

drabblarni g'oyani saqlagan holda qayta kengaytirib yozadi;

xatboshiga rioya qiladi.

Lingvistik malaka

(fonetika, imlo, soʻz yasalishi, morfemika, leksikologiya, oʻzbek leksikografiyasi morfologiya, sintaksis):

Fonetika

nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasini anglaydi va izohlaydi;
fonetik hodisalar (tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi)ni biladi va izohlaydi;
ohang va urgʻuni biladi va qoʻllaydi.

Imlo meʼyorlari

harflar imlosini biladi va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;
asos va qoʻshimchalar imlosini biladi va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;
soʻzlarni qoʻshib, ajratib va chiziqli bilan yozish, bosh harflar imlosi hamda koʻchirish qoidalariga amal qiladi.

Soʻz yasalishi

soʻz yasalishi, soʻz yasash tuzilishi (tarkibi), soʻz yasash usullarini farqlaydi va nutqida toʻgʻri qoʻllaydi;
soʻz yasash jarayonida roʻy beradigan oʻzgarish turlarini farqlaydi;
badiiy matn ustida ishlaydi, undagi yasama soʻzlarni topadi, soʻz yasalishi boʻyicha tahlil qiladi.

Morfemika

soʻzlarning morfem tarkibi, asos va qoʻshimchalar, qoʻshimchalarning maʼno vazifasiga koʻra turlarini farqlaydi;
old qoʻshimchalar va ularning xususiyatlarini matn orqali sharhlaydi;
qoʻshimchalardagi shakldoshlik, maʼnodoshlik, zid maʼnolilik hodisalarini matn turlarida farqlaydi;
nutqda asosdosh soʻzlardan foydalanadi.

Leksikologiya

sinonimlar, sinonimik qatordagi uslubiy farqlarni tushunadi va toʻgʻri qoʻllaydi;
omonim, antonim, paronimlarni farqlaydi, ularni nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;
soʻzning koʻp maʼnoliligi, oʻz va koʻchma maʼnolarni farqlaydi, koʻchma maʼnoni hosil qiluvchi birliklarni nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

Oʻzbek leksikografiyasi

oʻzbek leksikografiyasi (lugʻatshunoslik), ensiklopedik (qomusiy) va filologik lugʻatlarning oʻziga xosligini, turlarini anglaydi, ulardan toʻgʻri foydalanadi;
reklama matnlarida til birliklarini toʻgʻri qoʻllaydi.

Morfologiya

soʻzni tarkibiy qismlarga ajratadi, asos va qoʻshimchalarni, tub va yasama soʻzlarni farqlaydi, qoʻshimchalarning shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoliligini biladi, nutqida qoʻllaydi;
mustaqil soʻz turkumlari (ot, sifat, son, feʼl, ravish, olmosh), ularning maʼno turlarini oʻzaro farqlaydi, uslubiy xususiyatlarini tushunadi hamda nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;
yordamchi soʻz turkumlari (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama)ni oʻzaro farqlaydi, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay oladi hamda nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;
alohida soʻz turkumlari (modal, taqlid va undov soʻzlar)ni oʻzaro farqlaydi, ularning uslubiy xususiyatlarini tushunib izohlay oladi hamda nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

Sintaksis

soʻz birikmasi, gap va uning turlarini farqlay oladi va nutqida toʻgʻri qoʻllaydi;
gap boʻlaklarining oʻzaro bogʻliqligini, tartibini tushunadi va nutqda toʻgʻri qoʻllaydi;

sintaktik birliklarni farqlaydi va nutqda to'g'ri qo'llaydi;
 tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi.

ADABIYOT

(barcha ta'lim olish tillari bo'yicha)

Adabiyot fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;
 o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.



Adabiyot fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Adabiyot fanidan bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari

1. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

B1+

o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining janr xususiyatlarini ajratadi;
 musiqa va rang-tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qiladi va uni so'z bilan ifodalaydi;
 adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarni tushuntiradi;
 badiiy matn turlari (hikoya, she'r, drabbl, drama)ning shakli va mazmuniy xususiyatlarini farqlay oladi, matn tuzilishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalarning vazifasini tushunadi;
 ijodiy fikrlaydi, jo'yali gapirish texnikasiga rioya qiladi;
 she'rlarni yoddan ifodali o'qiydi, dramatik asarlardan parchalar ijro etadi, bunda til vositalarining mazmunini anglaydi, ohang, ovoz past-balandligi, to'xtam (pauza)dan o'rinli foydalanadi;

munozaralarda ishtirok etadi, aytilganlarni umumlashtiradi va xulosalaydi.

asarlarga insho, annotatsiya, taqriz, esse, kichik xabar, lavhalar yozadi.

2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

B1+



o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini ifodali o'qiydi, janr xususiyatlarini, she'riy san'at turlarini ajratadi;
 ikkilamchi g'oyalar asarning asosiy g'oyasini ochib berishga qay darajada xizmat qilayotganini tushuntirib beradi;
 asar yaratilgan kontekstning (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy kontekst) asar g'oyasiga ta'sirini ko'rsatib beradi;
 asarning asosiy g'oyasi asar davomida qanday rivojlantirilgani (ochib berilgani)ni tahlil qiladi;

muallif qo'llagan tasviriy vositalar (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz)ni topadi;

muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu

xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi;

notanish so'zlar ma'nosini lug'atlar yoki boshqa manbalar, shuningdek, kontekstdan aniqlaydi; asar va uning turli talqinlari (masalan, multimedia talqinlari, audiokitob, radiospektakl, san'atning boshqa turlaridagi talqinlari-kino, teatr, tasviriy san'at, monumental san'at)ni solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarini topadi;

yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida badiiy tasvir vositlarini qo'llay oladi; matnning izchilligini ta'minlash uchun so'zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to'g'ri qo'llay oladi;

asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi.

XORIJIY TIL

(barcha ta'lim olish tillari bo'yicha)

Chet tilini o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning turli madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarida faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir.

Ushbu hujjatda kompetensiyalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

Pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur malaka talablarida diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Shuningdek, Milliy va xalqaro darajadagi (IELTS, TOEFL, SAT) sertifikatlarga ega bo'ladigan, xalqaro talablarga javob bera oladigan yuqori darajadagi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Chet tili bo'yicha B1+ daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar

Til materiallari	Bilish va bajara olish
Talaffuz	Darak, so'roq, bo'lishsiz, buyruq gaplarda ritm va intonatsiyani to'g'ri qo'llay oladi, gapni ma'no bo'laklariga ajrata oladi. Taqdimotlar va muhokamalarda ta'kid maqsadida urg'u va intonatsiyadan foydalana oladi. Chet tilining asosiy variantlarini ajrata oladi.
Leksika	O'z mutaxassisligiga oid leksikani ajrata oladi va qo'llay oladi. O'z ixtisosligi doirasi va boshqa sohalarida so'z tuzilishi unsurlari (qo'shma so'zlar, prefikslar, suffikslar, so'z o'zagi)ni taniy oladi va tushuna oladi.
Grammatika	Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'lgan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini ajrata oladi va ulardan to'g'ri foydalana oladi.

Nutq faoliyati turlari	Bilish va bajara olish
Tinglab tushunish	O'z mutaxassisligi doirasidagi suhbatni tushuna oladi. O'z qiziqishlari doirasidagi teleradio dasturlar va boshqa manbalarni tinglab, asosiy ma'lumotlarni tushuna oladi. Shaxsiy qiziqish, o'qish yoki kasbga oid sohadagi og'zaki manbalarni tinglab, ham asosiy mazmuni, ham maxsus ma'lumotlarni anglay oladi. Til egasi bilan tanish va maxsus mavzuda muloqotga kirishganda uning aksariyat jihatlarini tushuna oladi.
Gapirish	Tanish kundalik va boshqa umumiy mavzularda ma'lum darajada o'zida ishonch bilan ma'lumot almasha oladi, tekshira oladi va tasdiqlay oladi. Muammoni tushuntirib bera oladi va uni hal qilish yo'llarini taklif qila oladi. Kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta oladi, tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora oladi. Tanish mavzularda debatlar va muhokamalarda ishtirok eta oladi. Muhokamalar jarayonida mavhum mavzular va masalalarda o'z fikrini ifoda qila oladi. Muhokama yoki suhbat mobaynida o'zgalar fikrini sharhlay oladi. Batafsil ko'rsatmalarga oid savollarga javob bera oladi. Savollar berib, tegishli sharhlar keltirib, intervyu olib bora oladi. Intervyu yoki maslahat berish mobaynida kerakli ma'lumotlarni bera oladi. Ommabop yoki ixtisoslikka oid mavzuda yaxshi tuzilgan taqdimot qila oladi. Qisqa hikoya, maqola yoki muhokama mazmunini qisqacha bayon qila oladi. O'z qarashlarini tushunarli va aniq ifodalay oladi.
O'qish	Kattaroq matnlarni o'qiy oladi, matnning turli qismlaridan tegishli ma'lumot yig'a oladi. Munozarali matnning xulosasini aniqlay oladi. Matn mazmunining asosiy g'oyasini ajrata oladi. Maxsus ma'lumot olish uchun nisbatan katta hajmdagi matnlarni o'qiy oladi. Maxsus ma'lumot olish, to'liq tushunish uchun qisqa gazeta maqolalarini, internet matnlari va boshqalarni o'qiy oladi.
Yozish	Suhbat paytida o'zi foydalanishi uchun yetarli darajada aniq bo'lgan qaydlar qila oladi. O'z qiziqishlariga taalluqli mavzuda qisqa, sodda esse yoza oladi. Rasmiy xat, ish yuritish qog'ozlari (ariza, rozilik xatlari, rezyume)ni yoza oladi. Tajriba, faoliyat va tadbirlar haqida talabga javob bera oladigan hisobotlarni yoza oladi. Loyiha ishi haqida qisqacha hisobot yoza oladi. Hikoya yoza oladi.

Chet tili bo'yicha B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar

Til materiallari	Bilish va bajara olish
Talaffuz	Darak, so'roq, bo'lishsiz, buyruq gaplarda ritm va intonatsiyadan foydalana oladi, gapni ma'no bo'laklariga qisman ajrata oladi. Taqdimotlar va muhokamalarda ta'kid maqsadida urg'u va intonatsiyadan foydalana oladi. Chet tilining asosiy variantlarini ajrata oladi.
Leksika	O'z mutaxassisligiga oid leksikani ajrata oladi va qo'llay oladi. O'z ixtisosligi doirasi va boshqa sohalarda so'z tuzilishi unsurlari (qo'shma

	soʻzlar, prefikslar, suffikslar, soʻz oʻzagi)ni taniy oladi va tushuna oladi.
Grammatika	Kommunikativ maqsadlarda zarur boʻlgan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini ajrata oladi va ulardan toʻgʻri foydalana oladi. Grammatik qoidalarni ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay oladi.

Nutq faoliyati turlari	Bilish va bajara olish
Tinglab tushunish	Ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy maʼnolarini tushuna oladi. Kasb-hunarga oid mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy maʼnolarini tushuna oladi. Shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi teleradio yangiliklar sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va gʻoyasini tushuna oladi. Batafsil yozishga yoʻriqnomalar yoki koʻrsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi. Tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi.
Gapirish	Sayohat mobaynida yoki kasbiy sohada vujudga kelishi mumkin boʻlgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi. Tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi. Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar boʻyicha maʼlumot oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi. Keng miqyosdagi his-tuygʻular va hissiyotlar, masalan gʻamginlik, baxtiyorlik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi. Mavzu boʻyicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi. Sayohat, xarid, bank va boshqa umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi. Yoʻriqnomalar yoki koʻrsatmalarni tushunib, ularga amal qila oladi. Rasmiy suhbatda, masalan ishga joylashish yoki stipendiya olish uchun boʻladigan suhbatda oldindan kutsa boʻladigan savollarga javob bera oladi. Yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqti va joyini rejalashtira oladi. Kasb-hunarga oid mavzudagi savollar bera oladi va ularga javob qaytara oladi. Ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bogʻlangan taqdimot qila oladi. Tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera oladi. Voqea-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bogʻlay oladi. Orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarini tasvirlay oladi. Ommaga eʼlon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora-tadbirlarni tasvirlay oladi. Sodda iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarni keltira oladi.
Oʻqish	Ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab boʻlmagan matnlarni toʻliq tushuna oladi. Kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli maʼlumotlarni topa oladi va tushuna oladi. Gazeta va internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna oladi.

	Asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha yozma yo'riqnomalarni tushunib, ularga amal qila oladi. Ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarini tushuna oladi.
Yozish	Shaxsiy va kasbiy kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay oladi. Malaka talabi formatga asoslangan qisqa kasbga oid hisobotlar yoza oladi. Mehnat amaliyoti tajribasiga oid oddiy hisobotlarni yoza oladi. Ish joyi bilan bog'liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo'yicha oddiy hisobotlar yoza oladi. Rezyume va tavsiya xatlarini yoza oladi.

5. O'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

5.1. O'quv rejalarining asosiy maqsadi va vazifasi:



o'quv rejasining asosiy maqsadi – davlat ta'lim standarti va malaka talablarida bitiruvchilarga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan ta'lim yo'nalishlariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish;

o'quv rejasining asosiy vazifasi – muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmini belgilash.

5.2. O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlarining har biri bo'yicha davlat ta'lim standarti hamda mazkur malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlariga umumta'lim va chuqurlashtirilgan fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar shaklida mantiqiy ketma-ketlikda shakllantiriladi;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalar asosida unifikatsiya qilingan va kasbiy fanlar belgilangan holda ishchi o'quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

5.3. O'quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi:

O'quv dasturining asosiy maqsadi – davlat ta'lim standarti va malaka talablarida o'quvchining bilimi, uquvi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O'quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o'quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlar mavzularini shakllantirish, ta'lim shakli va o'quv faniga ajratilgan vaqtga muvofiq o'quv materiallarini mavzular va o'quv mashg'ulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash;

fanni o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

5.4. O'quv dasturida o'quv materiallar ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq mustaqil ish, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt me'yorlariga muvofiq o'quv dasturiga kiritiladi.

5.5. O'quv dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv dasturlari o'quv rejalarida belgilangan har bir o'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va malaka talablari hamda o'quv rejalariga muvofiq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

tayyorlangan o'quv dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi;

ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida belgilangan tartibda ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Tayanch soʻzlar:

standart;
malaka talablari;
rasmiy nashr;
akademik litseylar taʼlim faoliyati;
asosiy chuqurlashtirilgan fanlar;
kasbiy fanlar;
oʻzlashtirishi zarur va yetarli boʻlgan bilimlar mazmuni;
namunaviy oʻquv rejasi;
oʻquv majmualari va mavzulari;
malaka talabining bajarilishi ustidan nazorat;
taʼlim yoʻnalishlari;
bitiruvchilarga qoʻyiladigan talablar;
taʼlim mazmunining zarur va yetarli hajmi;
bilim, koʻnikma va malaka;
kompetensiya;
oʻquv jarayoni grafigi;
oʻquv yuklamalarining koʻlami;
umumtaʼlim fanlarining malaka talablari;
oʻquv reja;
oʻquv dastur;
“Xalqaro bakalavriat” taʼlim dasturi;
“A- level” taʼlim dasturi;
“SAT” baholash tizimi.